

1. Eng katta a'zo




Qo'lingizning terisiga qarang. Diqqat bilan kuzatsangiz, teri usti mayda to'rli, tukli, g'adir-budur, chiziq-chiziq ekanini ko'rasiz.

Nima deb o'ylaysiz, teri qanday vazifani bajaradi?

Teri bizning himoya qobig'imiz. U bizni tashqi xatarlardan: qurib qolishdan, oftob urishidan, zararli mikroblardan himoya qiladi.


Toza teri – virus va bakteriyalardan eng zo'r himoya bo'lib, ularni ichki a'zolarimizga yuqishidan saqlaydi. Bundan tashqari, teri ichki a'zolarni jarohat va zarbalardan ham himoya qiladi.



Terining mikroskop ostida ko'rinishi



Terimiz – qalqonimiz!



2. Teri nimadan tashkil topgan?

Teriga kattalashtirib ko'rsatadigan oyna – lupa orqali qarasak, unda mayda **teshikchalar** borligi ko'rindi. Bu teshikchalardan yog' va ter ajralib chiqadi. Yog' terini moylab, yumshatib turadi. Mana shu yog' bo'lmasa, terimiz bunchalik yumshoq, mayin bo'lmas edi. Ter esa tananing harorati ko'tarilib ketmasligi uchun bug'lanib turadi.



Terining ustki qavati juda mayda, quruq tangachalar bilan qoplangan. Bular – eski hujayralar. Ular astasekin yo'qolib, o'rniga yangisi paydo bo'lib turadi. Bu tangachalar doimiy ravishda tanamizdan to'kilib turadi, lekin bizga sezilmaydi. Xonadagi changning katta qismi ana o'sha to'kilgan eski terimizning mayda parchalaridir. Bu changning ichida ko'zga ko'rinas mayda hasharotlar yashaydi. Ular odamda allergiya qo'zg'ashi mumkin. Shuning uchun har kuni xonalar changini ho'l latta bilan artib, tozalab turish kerak.




1-topshiriq. Terining asosiy xususiyatlarini va qanday vazifa bajarishini yozib chiqing.



Bilasizmi, bir insonning barmoq izlari dunyodagi boshqa hech qaysi odamda takrorlanmaydi.

3. Dunyoni qanday sezamiz?

Terida juda ko'p maxsus nuqtachalar bor. Bu nuqtalarning har bir alohida bir tuyg'uni – og'riqni, bir narsaning tekkanini, issiq yoki sovuqni sezishga yordam beradi. Ular terining turli joylarida joylashgan bo'ladi. Masalan, sovuqni sezadigan nuqtachalar issiqni sezadigan nuqtachalardan besh baravar ko'p bo'ladi. Shuning uchun ko'pchiligidiz issiqroq kiyinib yurishga harakat qilamiz.



Terida og'riqni sezadigan nerv tugunlari bor. Bunday tugunlar nihoyatda ko'p – millionga yaqin. Masalan, qo'lingizni kesib yoki shilib olsangiz, o'sha nerv tugunchalari shikastlanadi. Shu zahoti o'sha tugunchalar orqali miyaga "Diqqat, xavf-xatar!" degan buyruq keladi. Miya esa qaror qabul qiladi – siz qo'lingizni beixtiyor tortib olasiz.

4. Quyosh foydami yoki zararmi?

Inson ham, boshqa tirik organizmlar ham Quyoshsiz yashay olmaydi. Quyosh nuri ta'sirida terimizda nihoyatda muhim D vitamini hosil bo'ladi. Bu vitamin suyaklarni, immunitetni mustahkamlaydi.

Lekin quyosh nuri haddan tashqari ko'p bo'lsa, teriga zarar yetishi ham mumkin. Masalan, quyosh nurida uzoq vaqt o'tirsangiz, yelkalaringiz kuyib qoladi. Shuning uchun himoya kremi surmasdan quyoshda toblansangiz, teringiz qizarib, achisha boshlaydi.



Terimizning rangi maxsus bo'yoq modda – **melaninka** bog'liqdir. Organizmda melanin qancha ko'p bo'lsa, teri, ko'z va sochlardan shunchalik to'q rangli bo'ladi. Terimizning oftobda kuymasligi aynan melanin moddasiga bog'liq. Shuning uchun terisining rangi to'qroq bo'lgan odamlar quyosh nuri ostida ko'p yursa ham, ularga hech narsa qilmaydi. Terisining rangi ochroq bo'lgan odamlar esa terisiga doim himoya kremini surtib yurishi kerak.

Oftobda toblanish terining rangini o'zgartirishi mumkin. Toblanish paytida terimiz quyosh nuridan himoyalanishga urinib, qo'shimcha melanin ishlab chiqara boshlaydi.



Terini oftobdan himoyalash uchun yana nima qilish mumkin?



1. Melanin nima ekan? U nima uchun kerak?
2. Teri orqali tashqi olamni qanday his qilamiz?



Tadqiqot o'tkazing: kaftingizning terisini o'rganing. Kaft terisida qanday qiziqarli narsalarni ko'rdingiz? Xulosa chiqaring. Natijalarni daftarga yozib qo'ying.